

2-Mavzu: Buyuk sarkarda

Darsning maqsadi:

- o'quvchilarni "Amir Temur va chumoli" rivoyati bilan tanishtirish;
- buyuk sarkarda bobomiz haqida ma'lumot berish;
- asardan xulosa chiqarishga o'rgatish.

Tayanch so'zlar: sarkarda, chumoli, g'ayrat, umidsizlik.

Didaktik materiallar: mavzuga mos rasmlar, o'gitlar sandig'i.

Darsning borishi:

I. Darsning kirish qismi. (*3daqiqa*)

Darsni tashkil qilish.

Faollashtiruvchi mashq: Berilgan so'zlardan bitta gap tuzing.

Samarqand poytaxt Amir Temur

II. O'tilganlarni takrorlash. (*7 daqiqa*)

Allomalardan birini tanlab u haqda topib kelgan ma'lumotlarni so'rash.

III. Darsning asosiy qismi. (*30 daqiqa*)

Amaliy topshiriq: Topishmoqni o'qishadi va javobini topishadi.
Karvon o'tdi, ko'rdingmi?

Amaliy topshiriq muhokamasi uchun savollar:

1. Siz qanday so'zni qo'ydingiz?
2. Nima uchun bu so'z to'g'ri keladi deb o'ylaysiz?
3. Topishmoqning javobini topishda sizga qaysi so'zlar yordam berdi?

Mavzuni tushuntirish.

Amir Temur haqida qisqacha ma'lumot berish.



Amir Temur yirik davlat arbobi, buyuk turkiy sarkardasi, kuchli, markazlashgan davlat asoschisi, ilm-fan va madaniyat homiysidir. Amir Temur Shahrisabz yaqinidagi Xo'ja Ilg'or qishlog'ida tug'ilgan. U jasur va mard yigit bo'lib o'sdi. Ota-onasi va ustozlari uni haqiqiy jangchi

qilib tarbiyalashdi. Temurning asosiy maqsadi Movarounnahrning parchalanishini yengish va bu yerlarni yagona davlatga birlashtirish edi.

Suhbat o'tkaziladi.

Buyuk sarkarda Amir Temur haqida yana qanday ma'lumotlar bilasiz?

O'quvchilarning fikri umumlashtiriladi.

Matn bilan ishslash. “Amir Temur va chumoli” rivoyati o'quvchilarga zanjir usulida o'qitiladi. Darslikda berilgan savollarga javob beriladi.

1. Amir Temur bobomiz haqida nimalar bilasiz?
2. Amir Temur bu martabaga yetishishiga nima sabab bo'lgan deb o'ylaysiz?
3. Nima uchun kichik bir chumoli sarkardaga o'rnak bo'lgan?
4. Amir Temur qanday voqeani so'zlab berdi?
5. Siz rivoyatdan qanday xulosa chiqardingiz?

Matndagi notanish so'zlar yuzasidan lug'at ishi o'tkaziladi.

o'rnak – boshqalar ergashsa arziyidigan ish.

umidsizlik – ishonchsizlik

rizq – hayot uchun zarur oziq, nasiba.

g'ayrat – kuchli intilish, ishtiyoq.

azm-shijoat – qat'iy maqsad.

“Tanlab o'qish” mashqi.

Quyidagi so'zlar bilan boshlanadigan gaplarni topib o'qing.

Hayotim davomida ...

Barcha narsadan umidimni...

Chumoli o'zidan katta...

Chumolidagi g'ayrat ...

Bundan keyin maqsadim...


Mashq daftari bilan ishslash.

Mashq daftaridagi topshiriqlar bajariladi.

“Amir Temur va chumoli” rivoyatdan chiqargan xulosa yuzasidan mulohaza yuritiladi va yoziladi.

“Bog’la” mashqi.

Mashq daftarida berilgan so‘zlar ularning ma’nolari bilan moslashtiriladi.



Harflarni to‘g’ri ketma-ketlikda o‘qib, Amir Temur bobomizning uzugida yozilgan o‘gitni bilib olashadi. (Kuch adolatdadir)

“O’gitlar sandig’i” mashqi.

Amir Temur o‘gitlaridan alohida varaqlarga yoziladi va sandiqchaga solinadi. O‘quvchilar o‘gitlarni sandiqdan olib o‘qishadi va mazmunini yoritishadi.

Adovat emas, adolat yengadi.

Bir kalima shirin so‘z qilichni qinga kiritar.

Kuch adolatdadir.

Yaxshini yomon kunda sina.

Qo‘rqmasang yov qochar.

IV. Darsni yakunlash va baholash. (*3 daqiqa*)

- Rivoyatdan qanday xulosaga keldingiz?

Fikrni davom ettiring: “Men bugun darsda ... bilib oldim.”

V. Uyga vazifa. (*2 daqiqa*)

Amir Temur bobomiz haqida ma’lumotlar to‘plang. Rivoyatning mazmunini so‘zlab bering.